

IJTIMOIIY ISH MUTAXASSISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI VA AXLOQIIY MAS'ULIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18618534>

Sayfiddinova Kamola Sirojiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari va axloqiy mas'uliyati zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda kasbiy kompetensiyaning nazariy, amaliy, kommunikativ va refleksiv turlari hamda ularning ijtimoiy ish amaliyotidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bilan ishlash jarayonida axloqiy tamoyillarga amal qilishning ahamiyati xalqaro va milliy kasbiy kodekslar asosida asoslab berilgan. Maqolada kasbiy kompetensiya va axloqiy mas'uliyatning o'zaro bog'liqligi ochib berilib, ijtimoiy ish mutaxassislari tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar

ijtimoiy ish, kasbiy kompetensiya, axloqiy mas'uliyat, ijtimoiy ish mutaxassisi, kasbiy etika, ijtimoiy himoya.

Аннотация

В статье анализируются профессиональные компетенции и этическая ответственность специалиста по социальной работе на основе современных научных подходов. Рассматриваются теоретические, практические, коммуникативные и рефлексивные компетенции, а также их значение в социальной работе с уязвимыми группами населения. Особое внимание уделяется соблюдению этических принципов, закреплённых в международных и национальных профессиональных кодексах. Обоснована взаимосвязь профессиональной компетентности и этической ответственности как ключевых факторов эффективности социальной работы.

Ключевые слова

социальная работа, профессиональная компетентность, этическая ответственность, специалист по социальной работе, профессиональная этика, социальная защита.

KIRISH QISMI

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy ish instituti aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim mexanizm sifatida shakllanib bormoqda. Ijtimoiy ish mutaxassisi faoliyati inson hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kasbiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, undan yuqori darajadagi kasbiy bilim, amaliy ko'nikmalar va qat'iy axloqiy tamoyillarga amal qilish talab etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bilan ishlash jarayonida mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari va axloqiy mas'uliyati uning faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amaliyotda samarali qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Bugungi globallashuv va ijtimoiy jarayonlar murakkablashib borayotgan sharoitda ijtimoiy ish mutaxassisidan kasbiy bilimlarni doimiy yangilab borish, zamon talablariga moslashish va kasbiy mas'uliyatni chuqur anglash talab etilmoqda.

ASOSIY QISM

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini ko'zda tutadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, “kompetensiya” mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: o'z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o'zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Ijtimoiy ishchi - bu insonni, uning murakkab biopsixosotsial mavjudot sifatidagi xususiyatlarini yaxshi biladigan mutaxassis.⁶ Ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari uning professional faoliyatini samarali tashkil etish, mijozlarning muammolarini aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan kompleks bilim va ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy tajribaga, kommunikativ qobiliyatlarga, tahliliy fikrlashga va empatiya kabi shaxsiy fazilatlarga ham asoslanadi.

⁶ Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. O'quv qo'llanma./ D.H.Qodirov. – T.: —Lesson Press| nashriyoti, 2023-y. – 140 b.

Zamonaviy ijtimoiy ish amaliyotida mutaxassisdan huquqiy savodxonlik, psixologik yondashuv, ijtimoiy muhitni baholash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish hamda jamoa bilan ishlash kompetensiyalariga ega bo'lish talab etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy xavf guruhlariga mansub shaxslar bilan ishlash jarayonida mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari bir necha turlarga ajratiladi. Jumladan, kasbiy-nazariy kompetensiya ijtimoiy ishning konsepsiyalari, metodlari va texnologiyalarini bilishni ifodalaydi. Amaliy kompetensiya esa olingan bilimlarni real ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ kompetensiya mijozlar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning ehtiyoj va muammolarini to'g'ri anglashda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, refleksiv kompetensiya mutaxassisning o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish va kasbiy rivojlanishga intilishini ta'minlaydi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish nutq faoliyatiga o'rgatish jarayonida nutqiy faoliyat usullarini o'rgatuvchi kommunikativ topshiriqlar orqali tashkil qilinadi. Bunday topshiriqlar o'qituvchi tomonidan tayyorlanib, ularni bajarishning psixologik va metodik omillari belgilanadi. E.N.Zaretskayaning fikricha, kommunikativ faoliyat ma'lum tartibda amalga oshiriluvchi izchil harakatlar tizimi bo'lib, ularning har biri xususiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan va muomala maqsadi tomon qo'yilgan o'ziga xos "qadam" sifatida ko'rib chiqilishi mumkin". Taniqli tadqiqotchi A.N.Leontevning konsepsiyasiga tayangan holda, unda "kommunikativ faoliyat"ning, aniq strukturaviy komponentlardan iborat ekanini ko'rish mumkin.

Ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy faoliyati bevosita inson taqdiri bilan bog'liq bo'lgani sababli uning axloqiy mas'uliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Axloqiy mas'uliyat mutaxassisning kasbiy faoliyatida inson sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, adolat, maxfiylik, zarar yetkazmaslik va ijtimoiy tenglik tamoyillariga qat'iy amal qilinishini nazarda tutadi.

Ijtimoiy ishda axloqiy tamoyillar xalqaro va milliy kasbiy kodekslarda mustahkamlangan. Jumladan, mijoz manfaatlarini ustuvor qo'yish, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, professional chegaralarni saqlash hamda kasbiy halollik ijtimoiy ish mutaxassisining axloqiy mas'uliyatini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi.⁷

Ijtimoiy ish kasbining missiyasi ba'zi asosiy qadriyatlarga asoslangan. Kasbhunar tarixi davomida ijtimoiy ishchilar tomonidan qo'llab-quvvatlangan

⁷ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son

ushbu asosiy qadriyatlar ijtimoiy ishning o'ziga xos maqsadi va qarashlarining asosi hisoblanadi⁸

Etik prinsiplar ijtimoiy ishning asosiy qadriyatlariga asoslanadi. Bularga, 1. Xizmat 2. Ijtimoiy adolat 3. Inson qadr-qimmati va ahamiyati 4. Insoniy munosabatlarning muhimligi 5. Halollik 6. Kompetentlik. Ushbu tamoyillar ijtimoiy ishchi uchun ideal bo'lib, u shunga harakat qilish zarur.⁹

To'g'ri muloqot va axloqiy nutq me'yorlariga amal qilish ham nogironligi bor shaxslar bilan ishlashda muhim hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar to'g'risida"gi Qonuni axborot yetkazishda hurmat va kamsitishlardan holi til ishlatishni talab qiladi. BMTning Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi ham nogironligi bor insonlarga hurmat bilan muomala qilishni ta'kidlaydi. Sapir-Whorf gipotezasiga ko'ra, til inson tafakkuri va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi, shuning uchun nogironlik bo'yicha ishlatiladigan til neytral va hurmatli bo'lishi lozim.¹⁰ Pierre Bourdieu esa nutq va diskurs jamiyatda qudrat munosabatlarni shakllantirishini aytib, nogironligi bor shaxslarni stigmatizatsiyadan himoya qilish zarurligini ta'kidlagan.¹¹

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi nogironligi bor shaxslarning ish bilan ta'minlanishini huquqiy kafolatlaydi va korxonalarga nogironligi bor shaxslarni ishga qabul qilish kvotalarini belgilaydi. Ammo ish beruvchilarning ushbu huquqiy me'yorlarga rioya qilishida axloqiy mas'uliyat ham katta ahamiyatga ega.¹² Jamoat joylarida nogironligi bor insonlarning harakatlanishiga qulay sharoitlar yaratish davlat va jamiyat zimmasidagi axloqiy hamda huquqiy majburiyatlardan biridir.¹³

Ijtimoiy ish xodimi nogironligi bor shaxslarning huquqlarini ta'minlashda vositachi bo'lib, ularning jamiyatda inklyuziv ishtirok etishiga ko'maklashadi. Ijtimoiy sh xodimining asosiy majburiyatlari nogironligi bor insonlarning qonuniy huquqlarini kafolatlash va ijtimoiy himoyani amalga oshirish, inklyuziyani rag'batlantirish orqali nogironligi bor shaxslarning ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotda ishtirokini kengaytirish, shaxsiy mustaqillikni rivojlantirish nogironligi bor insonlarni jamiyatga moslashtirish va ularga o'z hayotlarini boshqarish imkoniyatini berish kabilardir.

⁸ NASW Code of Ethics. 1996. - P. 1.

⁹ Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. O'quv qo'llanma./ D.H. Qodirov. – T.: —Lesson Press| nashriyoti, 2023-y. – 140 b.

¹⁰ Whorf, B. L. *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. Cambridge, MA: MIT Press.1956

¹¹ Bourdieu, P. *Language and Symbolic Power*. Cambridge, MA: Harvard University Press.1991

¹² Goffman, E. *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.1963

¹³ Florida, R. *The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community, and Everyday Life*. New York: Basic Books.2002

Ijtimoiy ish xodimi quyidagi axloqiy me'yorlarga amal qilishi lozim:

- Konfidentsiallik – nogironligi bor shaxslar haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

- Beg'araz xizmat ko'rsatish – ijtimoiy ish xodimi shaxsiy manfaatlardan voz kechgan holda ishlashi lozim.¹⁴

- Hurmat va e'tibor – nogironligi bor shaxslarning shaxsiyati va qadriyatlariga hurmat bilan yondashish. Ijtimoiy ish xodimi jamiyatda nogironlik masalalariga nisbatan inklyuziv qarashlarni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Nogironligi bor shaxslar bilan muloqot qilayotganda kamsitmaydigan tildan foydalanish muhimdir. Nogironligi bor shaxslarga nisbatan ishlatiladigan so'z va iboralar ba'zan bilib yoki bilmasdan kamsituvchi bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun stereotiplardan qochish masalan, nogironligi bor shaxslarni doimiy ravishda "yordamga muhtoj" yoki "baxtsiz" deb tasvirlash noto'g'ri. Imkoniyatga urg'u berish – nogironligi bor shaxslarning qobiliyatlari va jamiyatga qo'shgan hissasi ta'kidlanishi lozim. Nogironligi bor shaxslarning o'z fikrlarini inobatga olish - qanday atamalarni afzal ko'rishlari bo'yicha ularning o'zlaridan so'rash muhim. Michael Oliver o'zining "Nogironlikni ijtimoiy modeli" nazariyasida til nogironlikni qanday idrok qilishimizga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.¹⁵ Susan Wendell nogironlik bilan bog'liq tildan noto'g'ri foydalanish nogironligi bor shaxslarning ijtimoiy hayotga integratsiyasiga to'sqinlik qilishi mumkinligini qayd etadi.¹⁶

Kamsitmaydigan til asosiy ikki tamoyilga tayanadi: Shaxsga yo'naltirilgan til (Person-first language) – insonni nogironligidan ustun qo'yish. Masalan, "nogiron" so'zi o'rniga "nogironligi bor shaxs" iborasidan foydalanish tavsiya etiladi. Identifikatsiyaga asoslangan til (Identity-first language) – ayrim nogironligi bor shaxslar o'z holatini identifikatsiya vositasi sifatida qabul qilishadi. Masalan, ko'r yoki kar shaxslar o'zlarini "ko'r odam" yoki "kar odam" deb atashni afzal ko'rishlari mumkin. Shuning uchun nogironligi bor shaxslarga nisbatan "ko'r, soqov, kar" kabi so'zlar o'rniga " Ko'rishda nuqsoni bor, eshitish yoki gapirish qobiliyati cheklangan shaxs" degan so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Axloqiy me'yorlarga amal qilinmasligi ijtimoiy ish jarayonida ishonchsizlik, professional ziddiyatlar va ijtimoiy salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy ish mutaxassisining kasbiy kompetensiyalari va axloqiy mas'uliyati zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi hamda ijtimoiy ish faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillar

¹⁴ **Banks, S.** *Ethics and Values in Social Work*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.2012

¹⁵ **Oliver, M.** *The Politics of Disablement*. Basingstoke: Macmillan Education.1990

¹⁶ **Wendell, S.** *The Rejected Body: Feminist Philosophical Reflections on Disability*. New York: Routledge.1996

hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiya nafaqat nazariy bilimlar majmuasi, balki ularni amaliyotda qo'llay olish, mijoz bilan samarali muloqot o'rnatish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va o'z faoliyatini tanqidiy baholash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar axloqiy tamoyillar bilan uyg'unlashgandagina ijtimoiy ishning insonparvarlik mohiyati to'liq namoyon bo'ladi.

Maqolada tahlil qilinganidek, ijtimoiy ish mutaxassisining axloqiy mas'uliyati inson sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, adolat va tenglik tamoyillariga amal qilish, maxfiylikni ta'minlash hamda zarar yetkazmaslik prinsiplariga sodiq qolishni talab etadi. Ayniqsa, nogironligi bor shaxslar kabi ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar bilan ishlash jarayonida mutaxassisning axloqiy pozitsiyasi va nutq madaniyati ularning jamiyatga integratsiyalashuvi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kamsitmaydigan til va inklyuziv yondashuvlardan foydalanish ijtimoiy ish amaliyotida nafaqat axloqiy, balki ijtimoiy zarurat sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida ijtimoiy ish mutaxassisi jamiyat va shaxs o'rtasida vositachi sifatida muhim rol o'ynashi, nogironligi bor shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ta'lim, mehnat va ijtimoiy hayotda teng ishtirok etishini ta'minlashda faol bo'lishi zarurligi asoslab berildi. Bu jarayonda huquqiy bilimlar bilan bir qatorda axloqiy mas'uliyat va professional etika normalariga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ijtimoiy ish mutaxassislari tayyorlash va ularning kasbiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan bir qatorda axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik, inklyuzivlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini chuqur singdirish zarur. Aynan shu uyg'unlik ijtimoiy ish faoliyatining barqarorligi va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. O'quv qo'llanma./ D.H.Qodirov. – T.: —Lesson Press|| nashriyoti, 2023-y. – 140 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son
3. NASW Code of Ethics. 1996. - P. 1.
4. Ijtimoiy ishning etik prinsiplari va qadriyatlari. O'quv qo'llanma./ D.H. Qodirov. – T.: —Lesson Press|| nashriyoti, 2023-y. – 140 b.

5. **Whorf, B. L.** *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. Cambridge, MA: MIT Press.1956
6. **Bourdieu, P.** *Language and Symbolic Power*. Cambridge, MA: Harvard University Press.1991
7. **Goffman, E.** *Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.1963
8. **Florida, R.** *The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community, and Everyday Life*. New York: Basic Books.2002
9. **Banks, S.** *Ethics and Values in Social Work*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.2012
10. **Oliver, M.** *The Politics of Disablement*. Basingstoke: Macmillan Education.1990
11. **Wendell, S.** *The Rejected Body: Feminist Philosophical Reflections on Disability*. New York: Routledge.1996